



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

G'ALLAOROL TUMANI NUROBOD QISHLOG'I SHEVASINING LINGVISTIK
TAHLILI

LINGUISTIC ANALYSIS OF THE DIALECT OF THE VILLAGE OF NURABAD,
GALLAAROL DISTRICT

Nigora SONDIBOYEVA,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PNAU5840

Annotation. *This article presents a comparative analysis of phonetic changes observed in selected words from the dialect of Nurobod village, G'allaorol district, Jizzakh region. Lexical units of the dialect are compared with their counterparts in the literary language and other dialects. The comparative analysis draws on sources such as "Devonu lug'otit turk" and the "Dictionary of Uzbek Folk Dialects". The study, supported by factual examples, elucidates the dialect's affiliation with the Kipchak dialect group, as well as such phenomena as consonant alternations, sound dropping, insertion, and substitution.*

Key words: *G'allaorol dialect, phonetic change, Kipchak dialect, consonant alternation, sound dropping, insertion, substitution.*

Har bir xalqning tilini o'rganish orqali uning tarixini, milliy qadriyatlarini va dunyoqarashini anglash mumkin. Til orqali asrlar davomida to'plangan bilimlar, urf-odatlar kelajak avlodga yetib keladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda til siyosatiga alohida e'tibor qaratilayotgani quvonarli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21- dekabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada tilimizning bugungi holati tanqidiy tahlil etilib, uni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yo'nalishi aniq ko'rsatib berilgan.

Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oynasi – uning tili va adabiyotidir, milliy tilni yo'qotish millatning ruhini yo'qotishdir" degan hikmatli so'zlari bugun ham o'z kuchini yo'qotmagan. Shevalar esa bu bo'ylarning jonli, nafis qatlamidir. Shevadagi jozibani, ta'sirchanlikni ba'zan adabiy til bilan yetkazish qiyin.

Til egasi har doim fikrini oson, tushunarli va ta'sirli yetkazishga intiladi. Shu sababli adabiy tildagi birliklar shevalarda turli o'zgarishlarga – fonetik, leksik, grammatik – uchraydi. Tilimizning sofligini saqlash borasida yurtimizda ko'p ishlar qilinmoqda, bu ishlarga davlat miqyosida e'tibor kuchaygan. Yuqorida aytib o'tganim farmon va konsepsiyada bugungi tilimizning ahvoli tanqidiy tahlil qilinib, muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. Masalan, turli soha atamalarini o'zbekchallashtirish, yangi atamalarga shevalardan mos so'z tanlash, dialektal lug'atlar yaratish, sheva so'zlarini o'rganishni takomillashtirish shular jumlasidandir. Bu esa tilshunos va shevashunos tadqiqotchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi kunda fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari va shu kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, sohalardagi atamalarni o'zbekchallashtirish, muqobili bo'lmagan tushunchalarga shevalarimizdan mos so'zni tanlash, turli qiyosiy va etimologik lug'atlar nashr etish, zarur atama, tushunchalarni ilmiy asoslash hamda ommalashtirish, shuningdek, o'zbek tili leksikasini ilmiy asosda har tomonlama o'rganish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tili leksikasini sheva so'zlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. S.Ashirboyevning ta'kidlashlaricha, shevalar to'xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o'rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi.[S.Ashirboyev, 2021: 8].

O'zbek tili turkiy tillar ichida o'zining lahjalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Biz o'rganayotgan Jizzax viloyatining G'allaorol tumani Nurobod qishlog'i shevasi aynan qipchoq lahjasiga kiradi. Qipchoq shevalarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda Professor X.Doniyorovning Samarqand viloyati sharqiy hududi shevalarining etnogenetik va lingvistik xususiyatlari bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiq. Olimning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" (1968), "O'zbek tilining jlovchi dialektlarini adabiy til bilan qiyoslab o'rganish", "Eski o'zbek tili va qipchoq dialektlari"(1977), "Qipchoq dialektlarining leksikasi"(1979) va V.Egamovning "O'zbek tilining G'allaorol shevasi"(1955), H.G'ulomovning Jizzax shevasi kabi ilmiy va monografik tadqiqotlar yaratilganligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Nurobod qishlog'i sheva vakillari mahalliy aholi nutqida adabiy tildan farqli ko'plab so'zlarni uchratish mumkin. Masalan, "mushuk" o'rniga *pishak*, "yanga" o'rniga *checha*, "o'g'lim" o'rniga *ulum* kabi.

Qipchoq shevalarini ilmiy o'rganishda X.Doniyorovning xizmatlari katta [Doniyorov, 1979:122]. G'allaorol tumani Nurobod qishlog'i shevasi quyidagi fonetik belgilarga ega:

1. "y" tovushi "ž"ga o'tadi: *yaktak* → *žegda*, *yashin* → *žashin*;
2. "m" tovushi "p"ga o'tadi: *mushuk* → *pishak*
3. "t" tovushi "b"ga o'tadi (bu o'zgarish boshqa qipchoq shevalarida kam uchraydi): *tirish* → *burish*;
4. "p" tovushi "ž"ga o'tadi (bu tojik tilining ta'sirida bo'lishi mumkin): *pochcha* → *žezda*;
5. "y" tovushi "ch"ga o'tadi: *yanga* → *checha*.

Bundan tashqari, shevada tovush tushishi va orttirilishi ham kuzatiladi. Masalan, *o'g'lim* → *ulum*, *sariq* → *sori* (g', q tovushlari tushgan), *xona* → *xondak* (n tovushi orttirilgan). Bu xususiyatlar G'allaorol shevasini Toshkent yoki Farg'ona atrofidagi qarluq shevalaridan farq qilishiga sabab bo'ladi.

O'zbek tilining qipchoq lahjasiga kiruvchi Nurobod qishlog'i shevasida ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotni aks ettiruvchi juda ko'p til faktlari mavjud, bu esa mazkur shevani har tomonlama tarixiy va qiyosiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Xususan, M.Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida tilshunoslikning ko'plab sohalarini qamrab oldi. Unda turkiy tillar, xususan, o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, dialektal xususiyatlariga doir muhim ma'lumotlar aks etgan.

G'allaorol tumani Nurobod qishlog'i shevasini kuzatishlarimiz natijasida shunga guvoh bo'ldikki, "Devonu lug'otit turk" asari leksikasi bilan bugungi o'zbek shevalarida qo'llanilgan ba'zi so'zlar o'rtasida yaqinlik va ba'zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko'rsatdi. Buni quyidagi misollarning qiyosiy tahlilida ham kuzatish mumkin.

Pishak. Adabiy tildagi "mushuk"so'zidagi "m" tovushi shevada "p"ga aylangan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk"asarida *pişik* so'zini "mushuk, sichqon tutadigan hayvon" deb izohlagan [DLT, III: 212]. G'allaorol varianti qadimgi turkiy shaklni saqlab qolgan. Masalan, qozoq tilida *pishuq*, qirg'iz tilida *mişik* (m saqlangan). Qipchoq shevalarida ham *pişik* yoki *pişşik* deyiladi. Qarluq shevalarida esa *mişük* varianti keng qo'llaniladi. G'allaorol variantida esa qadimgi turkiy tildagi shakl saqlanib qolgan.

Checha. Hozirgi o'zbek adabiy tilida "kelinoyi". Ushbu so'z taraqqiyot natijasida ikki bosqichda o'zgargan: *yanga* → *janga*, *janga* → *checha* (y→j→ch). "DLT"da *jeje* shaklida berilgan. Qipchoq shevalarida *jeje* yoki *şeşe* variantlari mavjud. O'rganilayotgan Nurobod qishlog'i shevasidagi *checha* o'ziga xos bo'lib, boshqa shevalarda uchramaydi.

Žegda (yaktak) (bir turdagi kiyim nomi). Bu yerda soʻz boshidagi “y” → “ž” ga aylangan. Qipchoq shevalarida *yegde* varianti bor. Soʻzning oʻzagi *yak* (bir) bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, lekin aniq etimologiyasi aniqlanmagan.

Žashin (chaqmoq). Adabiy tilda “yashin” va “chaqmoq” soʻzlari faol ishlatiladi. Shevada “yashin”ning “y” tovushi “ž”ga oʻzgargan: *yashin* → *žashin*. “Devon”da *yašin* shakli keltirilgan [III: 45]. Bu soʻz oʻgʻuz va qipchoq shevalarida ham *žašin*, *cašin* kabi variantlarda uchraydi.

Burish (tirishish). Adabiy tildagi “t” tovushi shevada “b”ga aylangan. Bu oʻzgarish faqat Nurobod qishlogʻi shevasiga xos xususiyat. Boshqa qipchoq shevalarida bunday hodisa kuzatilmaydi. Sababi nomaʼlum, ehtimol, mahalliy talaffuz odatiga bogʻliq. Soʻz maʼnosi esa oʻzgarmagan.

Jezda. Oʻzbek tili va uning shevalarida mazkur termin pochcha shaklida keng qoʻllaniladi. Lekin oʻzbek shevalarida uning *yezda*, *jezda* sinonimlari ham amal qilib, har ikki variantda oʻzidan katta opalari xola va ammalarining turmush oʻrtogʻi maʼnosini anglatadi. Qishloq shevasida *pochcha*, *jezda* varianti mavjud boʻlib, aynan opaning turmush oʻrtogʻi maʼnosini ifodalaydi. *Pochcha* opaning turmush oʻrtogʻiga nisbatan, *jezda* atamasi esa ammaning turmush oʻrtogʻiga nisbatan (yoshi keksalarga nisbatan) qoʻllaniladi.

Ulum (oʻgʻlim). Mazkur leksema sheva vakillari nutqida adabiy tildagi “oʻgʻil” soʻzining ifodalanishi boʻlib, talaffuzda tovush tushish hodisasi kuzatiladi: *oʻgʻil+im* → *oʻgʻlum* → *ulum*. Qipchoq shevalarida *oʻlum*, *uʻlim* kabi variantlari ham mavjud.

Boʻvak (chaqaloq). Mazkur leksemaning qadimgi shakli *bav* (goʻdak) koʻrinishida boʻlib, unga “-ak” qoʻshimchasi qoʻshilgach, “v” tovushi epenteza (qoʻshilish) orqali yaxlitlangan: *bavak* → *boʻvak* (unli oʻzgarishi bilan). Qipchoq shevalarida *bavak*, *bövek* shakllari ham bor. Nurobod qishlogʻi shevasi vakillari nutqida mazkur qadimiy shakl saqlagan holda uchraydi.

Xondak (oʻra, gʻalla ombori). Ushbu leksema tojik tilidagi *xona* (uy) va “-ak” qoʻshimchasidan tuzilgan. Adabiy tilda “oʻra” faol ishlatiladi. Mazkur soʻzning shevada qoʻllanishi oʻzbek-tojik aloqalarining yaqqol misolidir.

Nimtaki (nimcha, yengil kurtka). Bu soʻz “nim” (yarim) va “taki” (toʻncha) kabi qismlardan tashkil topgan. Adabiy tilda “nimcha” (nim+cha) ishlatiladi. Shevada “ch” tovushi “t” va “k”ga ajralgan. Nurobod qishlogʻi shevasida “nimtaki” koʻrinishi keng tarqalgan.

Qashqir (boʻri). Mazkur leksema Nurobod qishlogʻi shevasida hech qanday oʻzgarishsiz qadimgi turkiy shaklida saqlagan. “Devon”da *qašqır* shakli bor [I: 412]. Adabiy tilda “boʻri” koʻproq ishlatiladi, lekin shevada “qashqir” odatdagi soʻz.

Quyidagi jadvalda Gʻallaorol tumani Nurobod qishlogʻi shevasida faol qoʻllanadigan baʼzi leksik birliklar hozirgi oʻzbek adabiy tili, mavjud qipchoq shevalari hamda “Devonu lugʻotit turk” asariga qiyoslangan holda tahlil qilingan.

Nurobod qishlogʻi shevasi	Hozirgi oʻzbek adabiy tili	Qipchoq shevalari	“Devon”dagi shakl
pishak	mushuk	pişik, pişşik	pişik
checha	yanga	jeje, şeşe	jeje
jegda	yaktak	yegde	—
jashin	yashin/chaqmoq	jašin, cašin	yašin
burish	tirish	—	—
jezda	pochcha	jezde	—
ulum	oʻgʻlim	oʻlum, ulim	—
boʻvak	chaqaloq	bavak, bövek	bav
xondak	oʻra	—	—

nimtaki	nimcha	nimtaki	—
qashqir	bo‘ri	qaşqır	qaşqır

Jadvaldan ko‘rinadiki, *pishak*, *bo‘vak*, *qashqir* kabi so‘zlar “Devon”dagi shakllarni to‘liq saqlagan. *Jashin* va *checha* kabi so‘zlar esa fonetik jihatdan o‘zgargan, lekin ularning ildizi qadimgi turkiy til davri bilan bog‘liq. *Burish* va *jezda* esa faqat Nurobod qishlog‘i shevasiga xos xususiyatga ega.

Misollardan ko‘rinadiki, tahlilga tortilgan so‘zlarning aksariyati bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmasa-da, mavjud shevalarimizda faol ishlatilib kelinmoqda. Fonetik va leksik jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan Nurobod qishlog‘i shevasi monografik tadqiqot olib boruvchi yoshlarni kutmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Nurobod qishlog‘i shevasi viloyat va tumanlararo qiyoslanganda, leksik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, shakliy tuzilishidan rang-barangdir. Milliy tilimizning boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so‘zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to‘ldirib, boyitib borish dialektologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I–III томлар. – Тошкент: Фан, 1960-1963.
2. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
4. Egamov V. O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi. – Toshkent: Fan, 1955.
5. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.
6. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
7. Oralova S. G‘allaorol tumani shevalarining ba’zi fonetik xususiyatlariga doir (Obuz qishloq shevasi misolida). – “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2025. – B. 39–40.

